




SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI



2023

6-JILD
6-SON
13-IYUN



«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

**“SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI”
ILMIY-USLUBIY JURNALI**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

13-IYUN, 2023-YIL

6-JILD 6-SON

O‘ZBEKISTON

2023

РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ИНТЕРЕСОВ ЧЕЛОВЕКА И СОКРАЩЕНИИ БЕДНОСТИ <i>Машиарунов Назарбек Рустамович</i>	77
ZAMONAVIY JAMIYATDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH <i>Tojiddinova Layloxon</i>	84
TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOBIL ILOVALARDAN UNUMLI FOYDALANISH <i>Yaxyayeva Zumrad Islomovna</i>	87
BOLALARNI DZYUDO MASHQLARI YORDAMIDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH <i>Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich</i> <i>Matnazarov Asadbek G'ayratjon og'li</i>	90
“AVTOMOBIL-HAYDOVCHI-YO'L-PIYODA” TIZIMI FAOLIYATI TAHLILI <i>Ergashev Sanjar Alimboyevich</i>	98
PROFESSIONAL TA'LIM ASOSIDA PEDAGOG KADRLARNI KASBIY PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISH <i>Baymatova Umida Sapilayevna</i>	102
MUSULMON VA BOSHQA XALQLARNING USMONIYLAR DAVLATI ISTILOSINI VA BOSHQARUVIGA BO'LGAN FIKRI <i>Farxodjonov Farruh</i>	106
JURNALISTIKA SOHASIDA AXBOROT SIYOSATI VA UNING AMALIY AHAMIYATI <i>O'ktam Norpo'latov</i>	109
EKSKAVATORLARNING CHO'MICH TISHLARINI VA YEYILISHGA CHIDAMLI PAYVANDLASH MATERIALLARNI TARKIBINI VA QATTIQLIGINI ANIQLASH NATIJALARI <i>Yo'ldashev Shuxratbek Xabibullo o'g'li</i> <i>Maxkamov Rustamjon</i>	112
YURTIMIZ ADIBLARI HAYOTI VA IJODINI O'RGANISHDA UY MUZEYLARINING O'RNI VA AHAMIYATI. HAMID OLIMJON VA ZULFIYA UY MUZEYI MISOLIDA <i>Irgasheva Sojida G'olib qizi</i>	119
O'ZBEK XALQINING ETNOGENEZI <i>G'offorov Bekmurod G'ulomjon o'gli</i>	124
DEHQONOBOD KALIY ZAVODI VA UNING MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI <i>Oybek Abdimurotov</i> <i>Zarifa Odinayeva</i>	137
MATONATLI O'ZBEK AYOLI <i>G'ofurova Malohat Abdukarimovna</i>	141
AMIR TEMUR VA TASAVVUF PIRLARI (ULUG' SARKARDANING PIRLARGA MUNOSABATI) <i>Qahramonjon Ismoilov</i>	145
ETEYVLUMUMTA'LIM MAKTABLARI BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARDA JISMONIY VA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGIDA HARAKATLI O'YINLARNING TA'SIRI VA SAMARADORLIGI <i>Abdullayev Mehriddin Junaydilloyevich</i> <i>Azimov Nodir Nasilloevich</i>	151
EKSPEDISION METOD VA UNING MOHIYATI <i>Matkarimova Kumushbibi Amongaldi qizi</i>	161
RAQAMLI PLATFORMALARNI O'RGANISHDA JAHON ILMIY TADJIRIBASI	169

DEHQONOBOD KALIY ZAVODI VA UNING MAMLAKATIMIZ QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Oybek Abdimurotov

CHDPU Geografiya kafedrası dotsenti v.b.

Zarifa Odinayeva

CHDPU Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani "Tepaqo'ton" kaliyli tuzlar tog'-kon majmuasida 320 metr chuqurlikdan ruda qazib chiqarish hamda ushbu majmua negizida Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodini ishga tushirish ishlarini amalga oshirish maqsadida 2007-yil may oyida qurilish ishlari boshlangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 17-dekabrda "Tepaqo'ton kaliyli tuzlar koni negizida Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodini qurish tog'risida"gi PQ-748-son qarorida Tepaqo'ton kaliy tuzlari konini o'zlashtirish negizida kaliy o'g'itlari ishlab chiqarishni tashkil etish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini raqobatbardosh mahsulot bilan ta'minlash, respublikaning eksport salohiyatini oshirish, mintaqada ishlab chiqarish infratuzilmasi va yangi ish o'rinlarini yaratish, shuningdek yangi ishga tushirilgan Toshguzar — Boysun — Qumqo'rg'on temir yo'lidan oqilona foydalanish maqsadida Rossiyaning ZUMK-Injining va Xitoyning "SITIK" kompaniyasi investitsiyasi asosida qurilish ishlarini jadallashtirish vazifalari belgilangan. Dehqonobod kaliy zavodida 2010-yil qurilish ishlari nihoyasiga yetgach, 19-avgust kuni zavod ilk mahsulotini ishlab chiqardi. Zavodning ishga tushirilishi nafaqat ushbu tuman, balki mamlakatimiz sanoatida muhim voqelik bo'ldi. Negaki, mazkur yirik sanoat ob'ekti foydalanishga topshirilgach, yurtimizda kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish to'liq mahalliyashtirildi. Shundan so'ng zavod Markaziy Osiyoda yagona hisoblanuvchi yirik sanoat korxonasi aylandi va mamlakatimizga kaliy o'g'itlarning chetdan import qilinishi to'xtatildi. Natijada O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivoji uchun g'oyatda muhim uch asosiy unsur - fosforli, azotli va kaliyli mineral o'g'itlar ishlab chiqarish salohiyatiga ega jahonning to'qqizinchi (Ispaniya, Kanada, AQSh, Braziliya, Xitoy, Isroil, Rossiya, Belarusiya) MDHda esa uchinchi (Rossiya, Belarus) mamlakati hisoblanadi.

2010-yilda zavodda 50 ming tonna mahsulot tayyorlangan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ishlab chiqarish hajmi 8 barobar o'sib, 400 ming tonna mahsulot (kaliy xlorid, texnik tuz, suyuq parafin) tayyorlanmoqda. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 75 foizi eksport qilinmoqda. Bugungi kunga kelib korxonada faoliyat boshlaganidan buyon eksport qilingan mahsulotning umumiy miqdori 2 million tonnaga yetgan. O'zbekistonda ishlab chiqarilgan kaliy xlorid mineral o'g'iti 30 dan ortiq xorijiy mamlakatlarga jumladan, Xitoy, Qozog'iston, Tojikiston, Eron, Iroq, Birlashgan Arab Amirliklari, Vyetnam, Singapur, Malayziya, Shri-Lanka, Ozarbayjon, Qozog'iston, ,

Latviya, Litva, Gruzziya, Armaniston, Turkiya, Moldaviya, Ukraina Yaponiya, Hindiston va Afrika davlatlariga eksport qilinmoqda.

Hozirgi kunda zavodda quyidagi moddalar ichlab chiqarilmoqda:

1. Kaliy xlorid - qishloq xo'jaligida asosiy mineral o'g'it sifatida hamda yerni shudgorlashda va yumshatishda ishlatiladi.

2. Texnik tuz sanoatda burg'ulash suyuqliklarini tayyorlash, suvni tozalash va yumshatish, gidroksidi va xlor ishlab chiqarish, fiziologik eritmalar va dori-darmonlarni tayyorlash uchun ishlatiladi.

3. LAF (Nefras C2 800/120) mahsuloti bo'yoq, lak yog'och kimyosi va kam ekstraksiyalanuvchi sanoatlarda keng qo'llaniladi.

4. Suyuq parafin flotatsiya usulida kaliy xlorid olishda aktivator sifatida qo'llaniladi.

Shu o'rinda zavodning tub negizi, kaliy o'g'itlari tarkibidan qanday moddalar olinishi, qanday sohalarda ishlatilishi to'g'risida ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir Kaliy zavodi negizini kaliy o'g'itlari va selvinit xomashyosi tashkil etadi. Ruda yer ostidan maxsus mashinalarda o'ra shaklida qazib olinishida zavod xodimlarining xizmati katta. Ishchilar minglab km chuqurlikda, ya'ni yer ostida tuzni qazib olish jarayonidan toki xomashyo zavodga kelguncha va uning tarkibidan 27% kaliy o'g'itini ajratib olgunga qadar jarayonda tinimsiz kechayu – kunduz mehnat qilishadi. Ruda silvinit holida zavodga olib kelinadi va undan kaliy o'g'iti ajratib olinadi. Bundan tashqari silvinitdan tibbiyot, atir – upa ishlab chiqarishda fotografiya va boshqa sohalarda foydalaniladi, uning tarkibidan kaliy xlorid, natriy xlorid kabilar ham ajratib olinadi. Kaliy o'g'itlarini ajratib olinganidan so'ng undan o'simliklar o'sishi, hosildorlikning yanada balandroq bo'lishi, qishloq xo'jaligi va fermer xo'jaliklari hosilining yuqori bo'lishida foydalaniladi. Kaliy o'g'itlari, asosan, barcha qishloq xo'jalik ekinlari uchun kerak, ammo qumli va qumloq tuproqlarga ekilgan ekinlarga ehtiyoj bularga nisbatan kuchliroq. Kaliy o'g'itlari ishlatilishida o'zi alohida yakdil holatda qo'llanilmaydi ular fosforli yoki azot va fosforli o'g'itlar bilan birgalikda ishlatiladi.

O'simliklardan kaliy o'g'itiga ehtiyoj ko'proq bo'lganlari: go'za, kartoshka, sabzavot, qand lavlagi ekinlari va boshqalar. Kaliy o'g'itlarining o'simliklar o'sishida har xil o'rni va ishlatilishi vaqti mavjud shu haqida qisqa misol keltirib o'tsak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, Kaliy o'g'itlar rezavor meva, uzum, ildizmevalilar va boshqalar tarkibidagi qand miqdorini, kartoshkadagi kraxmalni, tolali ekinlarda tola miqdorini oshirib, sifatini yaxshilaydi, yem – xashak ekinlarini tarkibidagi protein miqdorini ko'paytiradi. Undan tashqari daraxtlarga qo'llanilsa sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamlilik xususiyatini oshiradi. O'g'itlarni ishlatishda yillik miqdor sifatida yarmini kuz paytlarida shudgorlarga, qolgan yarmini o'simliklar o'sish davri ya'ni vegetatsiya davrida berish ekinlardan yaxshi hosil berishida asos bo'lib xizmat

qiladi. Chunki kaliy xlorid tuproqlarning turlaridan kelib chiqib, ma'lum bir miqdori juda foydali xususiyatlarga ega.

Har bir faoliyat negizida ijobiy va salbiy taraflar bo'lgani kabi zavodning ham ishlab chiqarish jarayonida bir qancha salbiy jihatlari mavjud. Bu quyida ularga to'xtalib o'tmoqchimiz. Qazib olingan xomashyo zavodga keltirilib tarkibidan kaliy o'g'it (27 %) ajratib olingach qolgan xomashyolar (73 %) maxsus karyerlarga olib borib to'kiladi. Tuz sho'rlanish xususiyatiga ega bo'lganligi sabab tashilayotgan avtomashinalar va to'kilayotgan joylarning ham ma'lum darajada sho'rlanishiga olib keladi. Ishchilar o'z faoliyatini ikki joyda, ya'ni yer osti va yer ustida olib borishadi. Bunda yer ostida ishlaydigan xodimlar maxsus niqoblar va kiyimlar, bosh uchun shlemlardan foydalanib yer ostida qazish ishlarini olib borishadi. Qazish ishlari oib borilayotgan joylar shaxtalar deb yuritiladi. Shaxtada qazib olingan ruda zavodga ya'ni yer ustiga olib kelinib ishlov beriladi. Shaxtada ishlayotgan xodimlar salomatligiga salbiy ta'sirlar borligi sababli shaxta xodimlari o'z faoliyatini ertaroq tugatib, 10 yillik faoliyatidan so'ng nafaqaga chiqishadi. Chunki barchaga ma'lumki, inson organizmi uchun tuzlar ahamiyati katta bo'lib organizmda tuzlar muvozanatini saqlab turishga muhtojdir, sababi inson tanasi umumiy massasining 5,5 % ni turli xil tuzlardan iborat. Shaxtada ishlovchi insonlarning kunlik ish faolitatlari natijasida havodan nafas olish orqali kaliy xloridning ko'p miqdorda iste'mol qilinishi, organizmda tuzlar muvozanatining buzilishiga olib keladi bu esa qator kasalliklarni keltirib chiqaradi. Jumladan, insonlarda soch to'kilishi va ichki kasalliklarni keltirib chiqaradi.

O'rta Osiyo tuproqlaridan sur qo'ng'ir tuproqli yerlarga ishlatilsa tuproq turiga va qanday ta'sir etishiga qarab ishlatilishi juda muhim. Sho'r tuproqli yerlarga kaliy xloridni ishlatishda ehtiyot bo'lish lozim, chunki ko'p miqdorda ishlatilgan kaliy xlorid qishloq xo'jaligida yerlarning sho'rlashishiga va tuproqlarning sifatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Korxonada faoliyati natijasida atmosferaga chiqarilayotgan chiqindi moddalar zararlarini kamaytirish maqsadida zavod atrofidagi ochiq maydonlarda obodonchilik va ko'kalmzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Jumladan, korxonaga qarashli mavjud 21,5 gektar bog' maydonida jami 20 mingdan oshiq turli mevali va manzarali daraxtlar parvarishlanib kelinmoqda. Shuningdek, tumandagi 540 dona mojoyevnik, 400 dona qrim sosnasi, 95 dona tut, 315 dona sharq tuyasi daraxtlari va 2000 m² yashil maysa (gazon)ni parvarishlash ishlari amalga oshirilmoqda hamda har yili mavsumiy gullar ekilishi ta'minlanmoqda.

Dehqonobod kaliy zavodining yildan yilga rivojlanib borishi xorijlik kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarining yuksalishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan, Rossiyaning "Uralxim" kompaniyasi bilan amaliy va nazariy yo'nalishlarda tajriba almashish maqsadida hamkorlik aloqalari kengaytirilmoqda. Natijada ishlab chiqarish miqdorini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati oshmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdimurotov, O. U. (2020). Possibilities of using interactive methods in independent study of natural geography lessons. *Academic research in educational sciences*, (3), 1306-1312.
2. Uralovich, A. O. (2021). FORMS OF ORGANIZATION OF PRACTICAL TRAININGS IN GEOGRAPHY CLASSES AND THEIR PURPOSE, TASKS AND IMPORTANCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 4(11), 89-94.
3. Abdimurotov, O. U. (2022). Improving the Methodology of Working with a Map in the Process of Organizing Independent Education in Geography Courses. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1725-1729.
4. Uralovich, A. O. (2021, November). PROBLEMS OF GEOGRAPHY EDUCATION IN UZBEKISTAN. In *Archive of Conferences* (pp. 65-69).
5. Иброимов Ш.И. (2022). СТРУКТУРА РЕЛЬЕФА И МЕЛИОРАТИВНЫЕ МЕРОПРИЯТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ. *Экономика и социум*, (10-2 (101)), 699-703.
6. Уразбаев Абдукарим Кендирбаевич, Ражабов Фуркат Туракулович, & Иброимов Шерзод Иброим Угли (2022). METHODOLOGICAL BASIS FOR USING THE RELIEF PLASTIC METHOD IN STUDYING NATURAL AND ECONOMIC SYSTEMS OF RESERVOIR BASINS. *Центральноазиатский журнал географических исследований*, 1-2 , 29-36.
7. Иброимов Ш.И.Ўғли (2021). АМУДАРЁ ҲОЗИРГИ ДЕЛЬТАСИНИНГ РЕЛЬЕФ СТРУКТУРАСИ ВА МЕЛИОРАТИВ ТАДБИРЛАР. *Экономика и социум*, (4-2 (83)), 1115-1119.
8. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, Мансур Фарманович Бўрибеков, & Мақсуда Анвар Қизи Сатторова (2020). ЁШ АВЛОДГА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИНИ ЕТКАЗИШ. *Academic research in educational sciences*, (3), 275-279.
9. Sherzod Ibroim Ogli Ibroimov, & Munisa Maxkambayevna Fatxullayeva (2021). МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI ТАБИАТ BILAN TANISHTIRISH. *Academic research in educational sciences*, 2 (10), 1148-1157
10. Шерзод Иброим Ўғли Иброимов, Мансур Фарманович Бўрибеков, & Мақсуда Анвар Қизи Сатторова (2020). ЁШ АВЛОДГА ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИНИ ЕТКАЗИШ. *Academic research in educational sciences*, (3), 275-279.